

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING HUDUDNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TUTGAN O’RNI

Berdiyeva Nafisa Kaxramonovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya

akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro moliya institutlarining hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni tadqiq qilingan. Shuningdek, umumiy ko‘rsatkichlar tahlil qilingan hamda xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: xalqaro moliya institute, xalqaro kredit, YaIM, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya.

Kirish. Alohida mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatining o‘shishi, davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni ta‘minlashning mustahkamlanishi va samarali tizimni yaratish, shuningdek, pul-moliya sohasining doimiy ishlashini ta‘minlash bugungi kunda nafaqat iqtisodiy ta‘minotni ta‘minlash nuqtai nazaridan, balki jahon iqtisodiyotining umumiy rivojlanishi, shuningdek mintaqaviy va umumiy darajalarda kelajakdagi xavfsizlik hamda siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi majburiy omillari bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining qabul qilgan “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli farmonining jami belgilab olingan loyihalari moliyalashtirish xarajatlari miqdori birgina 2022 yil uchun 55 trln so‘m yoki 11,7 mlrd.AQSH dollarni tashkil qilgan. Shundan ko‘zda tutilgan xarajatlarning 323 mlrd.so‘mi yoki 5.56 mlrd AQSH dollari xalqaro moliya institutlari mablaglari va grantlari hisobidan moliyalashtirish rejalashtirilgan¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni.

Adabiyotlar sharhi. Danelian (2012) o'zining tadqiqot ishlarida xalqaro tashkilotlarni xalqaro shartnomaga asoslangan, ularga berilgan vakolatlarga muvofiq a'zo davlatlarning harakatlarini doimiy ravishda muvofiqlashtirishga mo'ljallangan tashkilotlar deb ta'riflaydi.

Fituzov (2015) ushbu tushunchani yanada kengroq ta'riflashni taklif qildi, unga muvofiq xalqaro tashkilot - bu xalqaro qonunchilikka muvofiq va siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, texnik, huquqiy va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risidagi xalqaro shartnoma asosida tuzilgan davlatlar birlashmasidir.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar-iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni tashkil etish va rivojlantirish, jahon iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, kapitalning erkin harakati va xalqaro huquq tamoyillariga rioya qilish asosida jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun tashkil etilgan xalqaro hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar majmui hisoblanadi.

Iqtisodchi olim Damon (2015) mazkur iqtisodiy tashkilotlarga qo'yidagicha ta'rif beradi: "Xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan davlatlarga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish uchun a'zo davlatlarning pul mablag'laridan foydalanadigan mustaqil a'zo davlatlardan iborat bo'lgan xalqaro banklardir".

Shu bilan birga, xalqaro tashkilot muayyan mezonlarga javob berishi kerak, ya'ni:

- alohida xalqaro-huquqiy shaxsga ega (odatda xalqaro shartnoma bilan belgilanadi);
- tashkilotlar a'zolari markaziy hukumatlar yoki markaziy boshqaruv organlari darajasida namoyon bo'lishi kerak;
- doimiy kotibiyatga ega bo'lish (doimiy konferensiyadan farq qilish yoki boshqa tashkilot yoki milliy hukumatning qaramog'ida bo'lmasligi uchun).

Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik mamlakatning jahon moliya bozoridagi kredit reytingini oshirishga, davlatning bank-pul tizimini takomillashtirishga, joriy to'lov balansini to'g'rilashga va mamlakatda defoltini oldini olishga yordam beradi. Lekin ba'zi iqtisodchi olimlarimizning ta'kidlashicha,

Xalqaro valyuta fondi talablari uzoq muddatli istiqbolda aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Andronova (2013) Xalqaro valyuta fondi faoliyatini ijobiy tavsiflaydi va a'zo davlatlarda iqtisodiy islohotlar samaradorligi oshgani, shuningdek, amalga oshirilgan rivojlanish dasturlari tashkilotning jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish strategiyasiga qo'shgan muhim hissalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz va xalqaro moliya tashkilotlari, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va shu kabi jahondagi yirik xalqaro moliya tashkilotlar bilan juda izchil va faol amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mazkur tashkilotlar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham o'zaro mustahkam iqtisodiy aloqalarni izchil davom ettirmoqdalar.


O'zbekiston global iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib borayotgan sharoitda, mamlakatda olib borilayotgan makroiqtisodiy, shu jumladan, pul-kredit siyosati va bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida xalqaro jamoatchilikni, xususan, xorijiy investorlar, xalqaro reyting kompaniyalari hamda moliyaviy tashkilotlarni xabardor qilib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda albatta O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinishi lozim.

Tahlil natijalari. O'zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi 2019 532 712,6 mlrd.so'mni va o'sish tendensiyasi 106 foizni tashkil qilgan hamda 2023 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022 yil bilan taqqoslaganda 6,0 foiz ga o'sdi. YaIM deflyator indeksi 2022 yildagi narxlarga nisbatan 112,2 foiz ni tashkil etdi. Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YaIM hajmi 90 871,1 mln.sollarni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2019 yilda 33 580,4 ming kishi, 2020 yilda 34 232,1 ming kishi, 2021 yilda 34 915,1 ming kishi,

2022 yilda 35 648,1 ming kishi va 2023 yilda 36 412,4 ming kishini tashkil etgan. Shuningdek, 2023 yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi joriy narxlarda 29 291,4 ming so'mni (yoki 2 495,6 AQSh dollari ekvivalentida) tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilda 15 863,9 ming.so'mni, 2020 yilda 17 688,5 ming.so'mni va 2022 yilda 25151,9 ming.so'mni tashkil qilgan.


Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rinib turganidek, 2023 yilda aholi jon boshiga YaIM hajmining real o'sishi 2022 yilga nisbatan 3,8 foiz ni, 2019 yilga nisbatan esa 13,2 foiz ni tashkil etdi.



1-rasm. Hududlarning YaIM tarkibidagi ulushining dinamik o'zgarishlari.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yildagi YaIM ko'rsatkichi 532712.5 mlrd.somni tashkil qilgan hamda hududiy ulushlari bo'yicha Samarqand viloyati 38 765.9 mlrd.so'mni, Navoiy viloyati esa 36 224.3 mlrd.so'mni tashkil qilgan. 2021 yilga kelib, YaIM miqdori 738425.2 mlrd.so'mni hamda Samarqand viloyati 52 893.6 mlrd.so'mni va Navoiy viloyati 58 730.3 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Shu bilan birga, 2023 yilda 1066.6 trln.so'mni tashkil qilganda mos ravishda ikki viloyatlar 74 115.3 va 81943.2 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 352,1 trln.so'm o'zlashtirilgan bo'lib, 2022 yilga nisbatan 122,1 foiz ni tashkil etdi. Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsulotlari tarkibidagi yuqori ulushlarga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi va Sanoat tarmoqlari yillar bo'shicha o'sish tendensiyasini ko'rsatgan. Hamda 2023 yilda qishloq xo'jaligi 28 786.9 mlrd.so'mni va sanoat tarmog'i 11184.8 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Shu bilan birga, 2019 yilda qishloq xo'jaligi 16 862.5 mlrd.so'mni hamda sanoat tarmog'I 5201.1 mlrd.so'mni tashkil qilgan.



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln.so'm

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan mablag'larning tarkibiy tuzilishi Respublika budjeti 20.4 trln.so'm, Tiklanish va taraqqiyot 1.6 trln.so'm, Korxonalar mablag'i 84.9 trln.so'm, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish 1.7 trln.so'm, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 21.2 trln.so'm, Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 22.3 trln.so'm, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 82.4 trln.so'm, aholi mablag'lari 33.3 trln.so'mni tashkil qilgan.

So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019 yilda 138,1 foiz ga yetgan, 2020 yilda turg'un holatda bo'lgan – 95,6 foiz ni tashkil etgan,

2021 yilda ko‘payib – 102,9 foiz kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib – 122,1 foiz ni tashkil etdi.

2023 yilda jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022 yilga nisbatan 3,0 foiz punktga kamayib, 12,7 foiz ni yoki 44,8 trln.so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 307,3 trln.so‘m yoki jami investitsiyalarning 87,3 foiz investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2022 yilga nisbatan 3,0 foiz punktga ko‘paydi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 66,4 foiz i yoki 233,8 trln.so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 33,6 foiz yoki 118,3 trln.so‘m moliyalashtirildi. 2023 yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha investitsiya statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha 3701 ta yirik korxonalar va 4409 ta kichik biznes sub’ektlari tomonidan hisobotlar qabul qilindi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,6 trln.so‘mni (dollar ekvivalentida 132,4 mln. AQSh dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2022 yilga nisbatan 0,5 foiz punktga kamayib, 0,4 foiz ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg‘arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 58,0 foiz ni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 88,6 foiz ni yoki 20,4 trln, so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 2022 yilga nisbatan 52,9 foizni, 1,7 trln.so‘mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,6 foiz punktga kamayib, 0,5 foizni tashkil etdi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 82,4 trln.so‘m yoki 2022 yilga nisbatan 1,2 foiz punktga ko‘paygan holda jami ulushi 23,4 foiz investitsiyalar o‘zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:

- Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish;
- 2021-2025 yillarda respublika neft-gaz hududlarida geologiyaqidiruv ishlarini olib borish;
- Toshkent viloyatida "Yoshlik 1" konini o'zlashtirish;
- 2020-2030 yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini oshirish dasturini amalga oshirish;
- Buxoro viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish;
- Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo kompleksini qurish;
- 2017-2023 yillarda uglevodorod xom ashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur;
- Samarqand viloyatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 22,3 trln.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,3 foiz ini tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 0,3 foiz punktga kamayish) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 foizi yoki 33,3 trln.so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uyjoylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish (Oniks, Treker), sement ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik gaz (SO₂) ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish, paxta-to'qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 100,6 trln.so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,6 foizi o‘zlashtirildi.

Xulosa. Respublikamiz bilan xalqaro moliya institutlaridagi o‘zaro munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish mamlakatimizning kelajakda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga hamda jahon iqtisodiy tizimi integratsiyasidagi o‘rning yanada oshirishga asos bo‘ladi.

Tadqiqotda mamlakatimiz iqtisodiyotiga xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlarini jalb etishni takomillashtirish qaratilgan qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarini ta‘minlash bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning muvofiqligi, qonun ustuvorligi ta‘minlash bo‘yicha doimiy isloxlarni amalga oshirish.

Xalqaro moliya institutlaridan kredit va qarz mablag‘larini davlat va xususiy sektorlarga jalb qilish uchun Standard and Poor’s, Moody’s, Fitch, JR Morgan and Chase kabi xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bunda xorijiy va mahalliy ekspertlar, mutaxassislarning bilim va tajriba almashish bo‘yicha mahsus dasturlarni ishlab chiqish.

3. Xalqaro moliya institutlaritomonidan ajratilayotgan kreditlarni hududlarga jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlari investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha hududlarning uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga tatbiq yetish, investitsiyalarning muqobil usuli bo‘lmish lizing munosabatlari, kredit uyushmalari, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari va fondlarining faoliyatini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni.

2. Данельян А. А. Роль международных организаций в регулировании международных экономических отношений: опыт, современные проблемы и тенденции // Международное право и международные организации", 2012. - № 3. - С. 12-18.
3. Фитузов В.В. Реформирование МВФ на современном этапе развития // В сборнике: Наука и образование в жизни современного общества сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции: в 12 частях. 2015. С. 136-140.
4. Ратников Г.Н., Бикалова Н.А. Роль международных финансовых организаций в экономике на примере МВФ // Новое слово в науке: перспективы развития. 2015. № 2 (4). С. 420-421
5. Damon P.Coppola (2015) "Multilateral organizations and International Financial Institutions" Chapter 10. www.sciencedirect.com
6. Пашенцев Д.А. Влияние деятельности международных финансовых организаций на российские традиции правового регулирования финансовой сферы // Юридическая наука. 2016. № 4. С. 90-94.
7. Бугай Н.В. Правовой статус МВФ и его сотрудничество с государствами-членами // Молодой ученый. 2016. № 9 (36). С. 250-253.
8. Андропова И.В. Международный валютный фонд: вчера, сегодня, завтра // Вестник международный организации. 2013-№7 (6)
9. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan va xalqaro tashkilotlarga a'zolikdan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2020 yil 22 iyun PQ-4756-sonli qarori.